

DIN VA MANAVIY RIVOJLANISH O'ZARO BOG'LIQLIK

Abdusamatov Sanjarbek

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali DI24-07 Guruh talabasi.

Samatov Xurshid

Ilmiy rahbar.

Teli: +998 20 022 66 77

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15379604>

Annotatsiya. Mazkur ishda din va ma'naviy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilinadi. Insoniyat tarixi davomida dinning jamiyat axloqiy me'yorlarini shakllantirishdagi roli, shaxsiy tarbiyada tutgan o'rni va ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda ma'naviy yuksalishga erishishda diniy qarashlar qanday ta'sir ko'rsatishi, yosh avlod ongida ijobiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni misollar orqali asoslab berilgan. Ish davomida tarixiy manbalar, falsafiy qarashlar hamda amaliy tajribalar asosida mavzuga ilmiy yondashuv qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, Din, Axloqiy qadriyatlar, Komil inson, Diniy meros, Farobiy falsafasi, Ilm va e'tiqod uyg'unligi, Ma'kuraviy tahdidlar, Shaxsiy ruhiy izlanish, Diniy-ma'naviy uyg'unlik.

RELIGION AND SPIRITUAL DEVELOPMENT: INTERCONNECTION

Abstract. This work analyzes the intrinsic connection between religion and spiritual development. It highlights the role of religion in shaping moral norms throughout human history, its place in personal upbringing, and its importance in reinforcing spiritual values. Moreover, the influence of religious views on achieving spiritual growth in modern society and their role in forming a positive worldview among the younger generation are substantiated with examples. A scientific approach has been employed based on historical sources, philosophical perspectives, and practical experiences.

Keywords. Spirituality, Religion, Moral values, Perfect human being, Religious heritage, Farabi's philosophy, Harmony of knowledge and faith, Ideological threats, Personal spiritual quest, Religious-spiritual harmony.

РЕЛИГИЯ И ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ: ВЗАИМОСВЯЗЬ

Аннотация. В данной работе анализируется неразрывная связь между религией и духовным развитием. Освещается роль религии в формировании нравственных норм на протяжении истории человечества, её значение в личностном воспитании и укреплении духовных ценностей. Также на примерах обосновано влияние религиозных взглядов на достижение духовного роста в современном обществе и их роль в формировании позитивного мировоззрения у молодёжи. В процессе исследования применён научный подход на основе исторических источников, философских воззрений и практического опыта.

Ключевые слова. Духовность, Религия, Нравственные ценности, Совершенный человек, Религиозное наследие, Философия аль-Фараби, Единство знаний и веры, Идеологические угрозы, Личностный духовный поиск, Религиозно-духовная гармония.

Kirish

Ma'naviyat va din bir-birini to'ldiruvchi, inson tafakkuri va iymonining yetuklashuviga xizmat qiladigan muhim omillardandir.

Diniy qadriyatlar shaxsning ruhiy dunyosini boyitib, uning adolat, haqiqat, ezgulik va sabr-toqat kabi yuksak ma'naviy g'oyalarga intilishiga turtki bo'ladi. Din, shuningdek, xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odat, qadriyat va an'analarini asrab-avaylash, uni yangi avlodlarga yetkazish jarayonida barqaror ruhiy asos vazifasini bajarib kelgan.

Insonparvarlik, halollik, rahmdillik, saxovat va oxiratni yodda tutib yashash kabi fazilatlar diniy ta'limotlar bilan uyg'unlashib, jamiyatda ma'naviy muhitning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, islomiy tafakkur va ilmiy merosning rivojida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Najmiddin Kubro hamda Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar beqiyos hissa qo'shgan. Ularning boy ilmiy-ma'naviy merosi bugungi kunda ham xalqimizning bebaho boyligi sanaladi.

Bugungi sharoitda diniy qadriyatlarimizni toza va asl holatda asrash, uni buzib ko'rsatishga urinayotgan zararli g'oyalarga qarshi ma'rifat bilan kurashish – har bir ongli fuqaroning vijdoniy va ma'naviy burchidir.[1]

Har qanday davrda, qanday tuzumda bo'lmasin, shaxs kamolotiga erishish jamiyatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblangan. Chunki inson o'z ustida ishlamaydigan, barkamollikka intilmaydigan jamiyatdan taraqqiyot kutib bo'lmaydi. Axloqan yetuk, ma'nan boy avlodni voyaga yetkazayotgan xalqning kelajagi, shubhasiz, porloq bo'ladi. Shu sababli, tarix davomida har bir xalq va jamiyat shaxs tarbiyasi, ma'naviy kamolot masalasiga o'ziga xos yondashuv bilan qarab kelgan.

Din va manaviy rivojlanish: O'zaro bog'liqlik va ajdodlar merosi

Ajdodlarimiz ham bu borada boy tajriba va ibratli qarashlarni meros qoldirgan. Bu haqida so'z yuritganda esa "bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini[2]" alohida ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Ular komil inson tushunchasini chuqur o'rganib, axloqiy mezonlarni mukammal tarzda ishlab chiqqanlar. Bugungi til bilan aytganda, ular o'z davrida Sharq axloq kodeksini yaratganlar.

Misol uchun, Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat a'zolarining axloqiy darajasini belgilab beruvchi o'n ikki xislat haqida fikr bildirgan [3]. Bu g'oyalar o'z davrida shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotining o'zaro bog'liqligini chuqur ifodalab bergan muhim mezon sifatida qaralgan.

Insonning ma'naviy barkamollikka erishganlik darajasini belgilovchi ko'plab mezonlar mavjud. Ular orasida axloqiy qadriyatlarni qalbiga singdirganlik, axloqiy me'yorlarga hurmat bilan yondashish va ularni kundalik hayotda izchil qo'llash eng asosiy belgilar sirasiga kiradi. Boisi, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bejizga "Ma'naviyatning o'zagi — axloqdir," deya urg'u bermaganlar.

Ma'lumki, qadimdan axloqiy va diniy qadriyatlar bir-biriga uzviy bog'liq holda qaralgan. Insonning ma'naviy yetukligi ko'p hollarda uning diniy e'tiqodi bilan chambarchas aloqador hisoblangan. Agar Farobiy ta'kidlaganidek, inson komilligi bilim orqali shakllanadi, degan yondashuvni olsak, bu bilim faqat dunyoviy emas, balki diniy asoslarda ham shakllanadi.

Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi allomalarimiz faoliyati ham bunga yaqqol misoldir.

Ular nafaqat ilm-fan yo'nalishida, balki axloqiy va diniy bilimlar sohasida ham chuqur iz qoldirganlar. Har ikki sohani uyg'unlashtirishga harakat qilgan bu ajdodlarimizning merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bugungi globallashuv sharoitida esa “komil inson” tarbiyasi yanada murakkab tus olmoqda. Endilikda axloqiy va diniy qadriyatlar oʻrtasidagi uygʻunlikning inson kamolotiga qanday taʼsir koʻrsatayotganini tahlil qilish zarur boʻlib qolmoqda. Sekulyar (dunyoviy) jamiyatda yashayotgan insonlar uchun ham diniy qadriyatlarning maʼnaviy-axloqiy hayotdagi oʻrni masalasi ochiq qolmoqda.

Zamonaviy tahdidlar, xususan, mafkuraviy bosimlar, madaniy yot gʻoyalar va axborot oqimining nazoratsiz kirib kelishi fonida, insonlarning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunga sabab boʻlayotgan omillar ikki asosiy guruhga boʻlinadi:

Birinchidan, tashqi taʼsirlar. Globallashuv jarayonida faoliyat yuritayotgan transmilliy kompaniyalar, ayrim siyosiy kuchlar insonlarni faollikdan yiroq, isteʼmolchilikka moyil kishilarga aylantirishga qaratilgan siyosat olib bormoqda. Bu esa jamiyatda ikki xil chekka holatga — haddan ziyod radikallik yoki befarqlikka olib kelmoqda.

Ikkinchidan, ichki omillar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar sababli, odamlar koʻproq moddiy ehtiyojlarni qondirishga harakat qilmoqda. Bu esa maʼnaviy ehtiyojlarga eʼtiborning kamayishiga olib kelmoqda. Natijada madaniy va maʼnaviy xizmatlar yetishmovchiligi yuzaga kelmoqda, ularning oʻrnini esa koʻpincha tashqi madaniy oqimlar egallamoqda.

Shu bois, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun axloqiy tamoyillar ustuvor boʻlishi, diniy va axloqiy qadriyatlar bir-birini toʻldirib, uygʻun holda amal qilishi muhimdir.

Diniy normalarning ijtimoiy hayotdagi rolini tan olish, ularni axloqiy mezonlar bilan uygʻunlashtirish — barkamol jamiyat sari muhim qadamdir.

Din va maʼnaviyat oʻrtasidagi farqlar

Bugungi davrda jamiyatda tobora koʻproq uchrayotgan fikrlardan biri — din va maʼnaviyatni bir-biridan ajratish gʻoyasidir. Biroq bu ajratish har doim ham toʻgʻri yondashuv emas. Maʼnaviyat koʻpincha dindan mustaqil, shaxsiy ruhiy izlanish sifatida talqin qilinsa-da, aslida u koʻp hollarda diniy qadriyatlar va anʼanalarga asoslanadi[4]. Maʼnaviylik — bu dindan tamomila ajralgan tushuncha emas, balki uning shaxsiy, ichki mohiyatini ifodalovchi shaklidir.

Tadqiqotchilar taʼkidlaganidek, koʻplab odamlar dinni rasmiy institutlar, qoidalar, marosimlar bilan bogʻlaydi, maʼnaviyat esa ichki uygʻunlik, ruhiy izlanish va oʻzlikni anglash bilan bogʻlanadi[5]. Masalan, "Alcoholics Anonymous" kabi harakatlar oʻzini diniy emas, balki maʼnaviy asosga ega deb eʼlon qilgan boʻlsa-da, ular ham ilohiy kuchga boʻlgan ishonch, axloqiy meʼyorlar va ichki oʻzgarish kabi diniy tamoyillarga tayanadi[6].

Koʻpincha din tanqidga uchraydi: u qattiq qoidalarga asoslanadi, shaxsiy erkinlikni cheklaydi degan fikrlar ilgari suriladi. Biroq bu tanqidlar, odatda, muayyan tarixiy shakllardagi anʼanaviy dinlarga nisbatan boʻlib, barcha diniy tizimlarga taalluqli emas. Buddizm yoki Taoizm kabi yoʻnalishlar maʼnaviyatga alohida urgʻu berib, ichki osoyishtalikni asosiy maqsad deb biladi[7].

Zamonaviy jamiyatda “yahudiy maʼnaviyati”, “nasroniy ruhiyati” yoki “islomiy maʼnaviyat” kabi atamalar keng tarqalmoqda. Bu holat shuni koʻrsatadiki, dinga boʻlgan ehtiyoj shaxsiyroq tus olmoqda. Dindorlik koʻproq ichki eʼtiqodga, shaxsiy mujassamlikka aylanyapti.

Demak, din va maʼnaviyat bir-biridan keskin ajraluvchi emas, balki bir-birini toʻldiruvchi tushunchalardir. Maʼnaviyat diniy ildizlarga ega boʻlgan holda, zamonaviy odamning shaxsiy tajribasi orqali namoyon boʻlmoqda[8].

Xulosa

Din va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Bu ikki omil inson ruhiy dunyosini boyitishda, axloqan yetuk jamiyatni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqimizning yuksak ma'naviyati ko'p jihatdan diniy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivoj topgan. Din insonni halollikka, sabrga, adolatga chorlagan bo'lsa, ma'naviyat uni ongli ravishda anglash, chuqur his etish, hayotda tatbiq etish orqali kamolot sari yetaklagan.

Zamonaviy davrda din va ma'naviyatning uyg'unligi nafaqat shaxsiy hayot, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim poydevor sanaladi. Shu bois, har bir insonda bu ikki omilga nisbatan chuqur tushuncha va hurmat hissi shakllanishi zarur. Zero, barkamol jamiyatni barpo etish yo'lida ma'naviy boylik va diniy asoslar eng ishonchli tayanch bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <https://oyina.uz/uz/teahause/1912>
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent. – "Ma'naviyat", 2013 yil. B.118.
3. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida
4. Abdullaeva, G.J. Din va ma'naviyatning o'zaro aloqadorligi // Falsafa va huquq. – 2020. – №2. – B. 35–39.
5. Алкина, Р.Р. Духовность и религия: поиск различий и точек соприкосновения // Вестник Казанского университета. – 2021. – Т. 163, №4. – С. 57–64.
6. James, W. The Varieties of Religious Experience: A Study in Human Nature. – New York: Modern Library, 1902.
7. Smith, H. The World's Religions. – San Francisco: HarperOne, 2009.
8. Nasr, S.H. The Heart of Islam: Enduring Values for Humanity. – New York: Harper San Francisco, 2002.